

Davlat ishtirokidagi korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblash tartibi

Davlat ishtirokidagi korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblash tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) Milliy hisoblar tizimi – 2008 yo'riqnomasi, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model – GSBPM) talablari asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitoblari uslubiyotini yanada takomillashtirish maqsadida tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi mutaxassislari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi;

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oraliq iste'mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi¹;

bevosita davlat ishtirokidagi korxonalar – ustav fondida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari;

bilvosita davlat ishtirokidagi korxonalar – ustav fondining 50 foizi va undan ortig'i bevosita davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar;

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 27- maydagi 116- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" <https://lib.stat.uz/uz/features/milliy-hisoblar?start=5>

davlat muassasalarining tijoriy faoliyati (bozor faoliyati) – davlat muassasalari tomonidan o‘zlarining asosiy boshqaruv va ijtimoiy-madaniy vazifalaridan tashqari, yuridik va jismoniy shaxslarga haq evaziga (bozor narxlarida yoki iqtisodiy jihatdan ahamiyatli narxlarda) ishlar bajarish, tovarlar sotish va xizmatlar ko‘rsatish orqali amalga oshiriladigan faoliyat.

2. Davlat ishtirokidagi korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblash Statistika dasturida nazarda tutilgan muddatlarda, yillik davriylikda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha shakllantiriladi.

2-bob. Davlat ishtirokidagi korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblash uchun axborot manbalari

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining “Davlat mulki” axborot tizimi ma’lumotlari va Milliy statistika qo‘mitasining qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, xizmatlar sohasi kabi tarmoq boshqarmalaridan yuridik shaxslar (korxona va tashkilotlar)ning statistika hisoboti ma’lumotlaridan foydalaniladi. Tarmoq boshqarmalaridan birlamchi ma’lumotlarni olish maqsadida zaruriy maketlar tuziladi va tegishli boshqarmalarga taqdim etiladi.

4. Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha oraliq iste’molini yillik davriylikda hisoblash korxona va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlari va ekspert baholashlar asosida amalga oshiriladi.

3-bob. Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish

5. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$GVA_i = O_i - IC_i, \quad (1)$$

bu yerda,

GVA_i – i - iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmi, asosiy narxlarda;

O_i – i - iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha asosiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

IC_i – i - iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha sotib olish narxlarida oraliq iste’mol hajmi.

6. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalarining oraliq iste’mol hajmi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarish hisobida mavjud oraliq iste’mol ulushini qo‘llash orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$IC_i = \frac{O_i \times k_i}{100}, \quad (2)$$

bu yerda,

$IC_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sotib olish narxlarida oraliq iste'mol hajmi;

$O_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy narxlarda ishlab chiqarish hajmi;

$k_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarish hisobining yillik yakunlari asosidagi oraliq iste'mol ulushi.

7. Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi ushbu subyektlar tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmini iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatiga bo'lish orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh = \frac{\sum_{i=1}^n GVA_i}{GVA} \times 100 \quad (3)$$

bu yerda,

Sh – davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi, *YAQQga nisbatan % da*;

$GVA_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi, asosiy narxlarda;

GVA – jami iqtisodiyotda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatning YAIMdagi ulushini hisoblash bo'yicha jadval ilovada keltirilgan.

4-bob. Yakuniy qoidalar

8. Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar milliy hisoblar ko'rsatkichlarining aniqlik kiritilgan hisob-kitoblari asosida qayta hisoblanishi mumkin.

9. Birlamchi ma'lumotlarni shakllantirish bilan bog'liq uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish hamda axborot resurslarining kengayishi ushbu Tartibni kelgusida yanada takomillashtirish imkonini beradi.

10. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘RQ-707-son Qonuni, 2021- yil 11- avgust;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 775- son qarori, 2020- yil 9- dekabr;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 27- maydagi 116- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” https://lib.stat.uz/images/metodika/01_-metodika-vvp_uzb.pdf;
4. “Davlat ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiyotdagi ulushini hisoblash va monitoringini olib borish metodikasi”, Toshkent, 2021- y.
5. Milliy hisoblar tizimi – 2008 // Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki, 2009- y.
6. Международная стандартная отраслевая классификация всех видов экономической деятельности (МСОК), четвертый пересмотренный вариант, БМТ, Нью-Йорк, 2009 г. https://unstats.un.org/unsd/publication/seriesm/seriesm_4rev4e.pdf
7. “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2-tahrir)”. O‘zDT 005:2011.
8. Statistik ko‘rsatkichlarga qisqacha uslubiy tushuntirishlar // O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi-Toshkent., 2020- y.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning yalpi ichki
mahsulotdagi ulushini hisoblash
Tartibiga ilova

Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymatning YAIMdagi ulushini hisoblash

IFUT-2 kodlari		Ishlab chiqarish hajmi (O_i), mlrd so‘m	Oraliq iste‘mol ulushi (k_i), % da	Qo‘shilgan qiymatni aniqlash formulasi	Yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi (GVA_i), mlrd so‘m	Korxonalarning YAIMdagi ulushi formulasi	YAIMdagi ulushi (Sh), YAQQga nisbatan % da
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati – jami			$GVA_i = O_i - \frac{O_i \times k_i}{100}$		$Sh = \frac{\sum_{i=1}^n GVA_i}{GVA} \times 100$	
	<i>ulardan:</i>						
A	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi						
B,C,D,E	Sanoat						
F	Qurilish						
	Xizmatlar sohasi						
G,I	Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar						
H,J	Tashish va saqlash, axborot va aloqa						
K-S	Boshqa xizmat tarmoqlari						